

Kompyuter injiniringi (Axborot xavfsizligi) ta'lim dasturining ta'lim natijalari

Ta'lim natijalari (kompetensiyaning asosiy birliklari):	
TN 1.	Turli auditoriyalar bilan samarali muloqot qila olish va o'z fikrini o'zbek, rus va xorijiy tillarda ifoda eta olish. Falsafiy, tarixiy va bahs-munozara usullari orqali asosli qarorlar qabul qila olish hamda yetakchilik jamoalarida samarali faoliyat yurita olish.
TN 2.	Xavfsizlik psixologiyasi, pedagogika, ekologiya, sog'liqni saqlash va ish joyi muhitiga asoslangan holda qarorlar qabul qila olish, shaxs va jamiyat farovonligini ta'minlash.
TN 3.	Matematika, tabiiy fanlar va texnik fanlar sohalaridagi asosiy va ilg'or bilimlarni xavfsizlik masalalariga qo'llay olish, zamonaviy ilmiy yutuqlardan foydalanib hisoblash muammolarini hal etish.
TN 4.	Loyihalar ishlab chiqish va ularni boshqarish, ma'lumotlarni tahlil qilish, tadqiqotlar olib borish, iqtisodiy hisob-kitoblarni tahlil qilish, shuningdek ma'lumotlar yaxlitligini ta'minlagan holda ma'lumotlar bazasi tizimlari va xavfsizligini ta'minlash.
TN 5.	Dasturlashda ma'lumotlar tuzilmasi va algoritmlarini ishlab chiqish, web dasturlash ko'nikmalariga ega bo'lish, xatoliklarni aniqlash va bartaraf eta olish, Web server xavfsizlik sozlamalarining asosiy tamoyillarini bilish, web ilovalardagi xavflar hamda ularning oldini olish yoki bartaraf etish choralarini amalga oshirish.
TN 6.	Tarmoq protokollari va tarmoqdan bo'ladigan hujumlarni bartaraf etish, Tizim ishonchliligini ethical hacing va raqamli kriminalistika yordamida tekshirish, katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlash texnologiyalarini qo'llay olish, kriptografik usullar yordamida ma'lumotlarni shifrlash va deshifrlashni amalga oshirish, Simsiz tarmoqlarni (Wi-Fi) xavfsiz sozlash va himoya qilish ko'nikmalariga ega bo'lish.
TN 7.	Raqamli tizimlar, kompyuter apparat vositalari, protsessorlar, xotira, kiritish-chiqarish qurilmalari, axborot uzatish tizimlari, identifikatsiya va utentifikatsiya jarayonlarini boshqarish, dasturiy vositalar xavfsizligi, operatsion tizimlar hamda ularning xavfsizlik choralarini amalga oshirish.
TN 8.	Sun'iy intellekt tamoyillarini qo'llash, ko'p agentli tizimlarni loyihalash, ma'lumotlarni qazib olish usullaridan foydalanish hamda katta hajmdagi ma'lumotlardan mazmunli xulosalar chiqarish orqali murakkab muhandislik muammolarini hal etish.
TN 9.	Signallarni raqamli usullar yordamida tahlil qilish va qayta ishlash, Arduino platformasi hamda mashinali o'qitish vositalari bilan ishlay olish, dastur uchun zarur kodlarni yozish hamda apparat va dasturiy qismlarni birlashtirib real vaqt tizimlari uchun o'rnatilgan tizimlarni sinovdan o'tkazish.
TN 10.	Kiberxavfsizlikni ta'minlashning huquqiy asoslarini bilish, kiberxavfsizlik sohasidagi me'yoriy-huquqiy bazani tahlil qila olish, kibermakonda axborotni qayta ishlashda risklarni baholay olish.